



THE REALITIES OF THE FINAL STAGE OF REPRESSIVE POLICIES IN THE SURKHAN REGION

Diloram Todjiyevna Yakubova

Professor

Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Denau, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: sovkhoz, kolkhoz, district committee, oblast, region, cotton case, USSR.

Received: 13.06.25

Accepted: 15.06.25

Published: 17.06.25

Abstract: This article explores the local realities of the repressive policies implemented during the final stages of the Soviet era in the Surkhan region. It highlights the political repressions of the 1930s–1950s, their impact on the socio-economic and cultural life of the area, and the severe consequences these policies had on the lives of local intellectuals, religious figures, and ordinary citizens.

SURXON VOHASIDA QATAG‘ONLIK SIYOSATINING SO‘NGGI BOSQICHI VOQEHLARI

Diloram Todjiyevna Yakubova

professor

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Denov, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zi: Sovxoz, kolxoz, raykom oblast, region, paxta ishi, SSSR.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxon vohasida sovet davrining so‘nggi bosqichlarida amalga oshirilgan qatag‘onlik siyosatining mahalliy voqe‘lari, XX asr 30–50-yillarida hududda ro‘y bergan siyosiy repressiyalar, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotga ta‘siri, mahalliy ziyolilar, din vakillari va oddiy xalq vakillarining taqdiriga bo‘lgan og‘ir oqibatlari yoritib berilgan.

СОБЫТИЯ ПОСЛЕДНЕГО ЭТАПА ПОЛИТИКИ РЕПРЕССИЙ В СУРХАНСКОЙ ДОЛИНЕ

Дилорам Тоджиевна Якубова

Профессор

*Деновского института предпринимательства и педагогики
Денов, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: совхоз, колхоз, райком, область, регион, хлопковое дело, СССР.

Аннотация: В данной статье рассматриваются местные реалии политики репрессий, осуществляемой в последние этапы советской власти в Сурхандарьинской долине. Освещаются политические репрессии 30–50-х годов XX века, их влияние на социально-экономическую и культурную жизнь региона, а также тяжелые последствия, которые они имели для судьбы местной интеллигенции, религиозных деятелей и простых жителей.

Kirish.

Tadqiqotlar davomida o'rganilgan yana bir xotira G'uzor rayoni "VLKSM 50-yilligi" sovxozining sobiq direktori Ro'ziboy Turopov hamda uning oila a'zolari boshidan o'tkazgan voqealar xususida. 1979- yilda ushbu sovxozda rais vazifasini o'tab kelayotgan Ro'ziboy Turopov 1985-yilda olib ketiladi. Uyida va yaqin qarindoshlarining xonadonida o'tkazilgan tintuvlar natijasida hech qanday qiymatga ega mol-mulk topilmadi. Biroq 1986-yilda sud hukmi bilan qo'shib yozishda ayblanib, 10-yil qamoq jazosi tayinlanadi. Uning ukasi Yalqoshdiev Egamqul bobo voqealarni shunday xotirlaydi:

“Akam tinim bilmay ishlardi. Biroq biror mol-mulk orttirolmadi. Shu sababli ham uyimizda tintuv o'tkazganlar arzigulik hech nima topa olishmadi. Biz, albatta, rayon, viloyat rahbarlariga, hatto Nishonovgacha bordik. Haftalab hukumat ostonasida yotdik. Bizga o'xshab sarson bo'lganlar o'sha davrda juda ko'p edi. Lekin natija bo'lmadi. Yozgan arizalarimiz ko'rib chiqilmadi”.

Egamqul boboning singillari Turopova Mehmon aya suhbatni davom ettirar ekan, tarixni shunday eslaydi: “Akam qamoqda paytlarida qizlari daryoga oqib ketdi. Farzand dog'ida ayollari yurak xastaligini orttirib oldi va ma'lum vaqt o'tgach, shu kasallikdan vafot etdi. Farzandlarning boshi egildi, oilada qiyinchiliklar bo'ldi. Akam bilan birga ota-onam, akamning oilasi, farzandlari, xullas barchamiz shu azoblarni birgalikda boshdan kechirdik”. Ro'ziboy Turopov 1989-yil yil oqlanib, ozodlikka chiqadi, oila a'zolarining bag'riga qaytdi. Biroq, “Paxta ishi” siyosati bahonasida qilingan adolatsizliklar Turopov va uning oila a'zolari hayotida, qalbida o'chmas dog' qoldirdi.

Asosiy qism.

“Paxta ishi” masalasida ayblanib qamalgan insonlarning oilalaridagi barcha birdek qatag‘on changaliga tushdi. Oila a‘zolarining har biriga aziyat yetkazdi.

“Paxta ishi” qurbonlaridan Qodir bobo Odilovning rafiqalari Turdigul Ravshanova[1] bilan bo‘lgan suhbat o‘sha davr tarixi haqida yana bir daliliy fikrlar bo‘lib, aholining ijtimoiy ahvolini qanday bo‘lgani haqida yanada aniqroq tasavvur beradi.

“Turmush o‘rtog‘im bilan 1973- yildan buyon yashab kelmoqdamiz, - deydi Turdigul Ravshanova. - U kishi avvaliga Qarshi tumani paxta zavodida, 1976-yildan 1984-yil noyabr oyiga qadar Kasbi tumani paxta zavodida, 1985-yildan esa Nishon yuqoridagi paragrafda fuqarolardan tushgan arizalar qismida keltirib o‘tildi. Ana shu arizalarning nechog‘li asosli ekanligini tekshirish uchun ham Gdlyan va Ivanov tergov guruhi tomonidan olib borilgan ishlarni qayta ko‘rib chiqish zarur edi. Bu paytda Gdlyan va Ivanov boshliq tergovchilar guruhi O‘zbekistondagi ishlarni olib borishdan chetlatilgan edilar.

T.Gdlyan bilan N.Ivanov va ularning tergov guruhi ustidan 1989- yilning 25 may kuni jinoiy ish qo‘zg‘atildi[2]. Mazkur ish qo‘zg‘atilgan kuni SSSR xalq deputatlarining birinchi s‘ezdi ish boshlagan kunga to‘g‘ri keldi[3]. 1989-yilning 1 iyun kuni V.Jlyuxin (SSSR Bosh prokuraturasi maxfiy boshqarma boshlig‘i) boshliq L.Yuldoshev (SSSR Bosh prokuraturasi maxfiy boshqarma xodimi), A.Suxarev (SSSR sobiq Bosh prokurori), L.Abramov (SSSR sobiq Bosh prokurori o‘rinbosari) kabi 15 kishidan iborat tergov guruhi shakllantirildi[4] va iyun-iyul oylari davomida O‘zbekistonda tergov olib borishga doir barcha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Keyinchalik 1990-yilning boshlarida esa A.Suxarevning ko‘rsatmasi bilan SSSR Ichki ishlar vazirligi Bosh tergov boshqarmasining sobiq boshlig‘i, adliya general-leytenanti V.G.Novikov boshqarmaga o‘rinbosar qilib tayinlandi[5]. V.Novikov guruh olib borayotgan ishni obdon o‘rganib chiqar ekan, Gdlyan guruhi qonunchilikni qo‘pol ravishda buzganligi haqida xulosaga keldi. Bu paytga kelib guruh a‘zolari 37 kishiga yetdi[5]. O‘sha davrda T.Gdlyan va N.Ivanov mavqei juda baland edi, ko‘pgina gazetalar vajurnallar, ayniqsa “Ogonyok” jurnali ularning qo‘lida bo‘lib, albatta matbuotning bo‘sh qolgan sahifalarida Gdlyan va Ivanov tomonidan berilgan tasdiqlanmagan ma‘lumotlar chop etildi. Ayniqsa, T.Gdlyan, N.Ivanov, Ignatevich, Semyonov, Sorokinlarning familiyalari doimiy ravishda chiqib, ularga qarshi ish boshlagan guruhni qoralash maqsadida asossiz da‘volar bildirib turilardi. Maqsad esa guruhning ruhini sindirish, ishni to‘xtatishga majbur qilish edi.

Viktor Ilyuxinning shunday bir mantiqli fikriga to‘xtalamiz. U o‘z kitobida: “Agar Gdlyan bilan Ivanovga ayrim siyosatchilar pishang bermaganida, agar bu ikki tergovchi ularga vayron qiluvchi kuch sifatida kerak bo‘lmaganida edi, bu hodisa shu qadar zo‘rayib ketmagan bo‘lar.

Islom Karimov tashabbusi bilan “Paxta ishi” bo’yicha aziyat chekkan Ravshan Toshtemirov, O’rol Boltaev, Berdiyori Do’stmurodov, Mamarasul Bahromov kabi ko‘plab sobiq rahbarlar ishlari qayta ko‘rib chiqildi, oqlandi va o‘z ishlariga qayta tiklandilar.

1987-yildan e’tiboran “Paxta ishi” bo’yicha qamoqqa olingan kishilarning jinoiy ishlarini qayta ko‘rish boshlandi va ko‘pchiligi oqlanib o‘z oilalariga qaytishdi. Quyida 1988-yilda oqlangan qashqadaryolik nohaq qamalganlarning ba’zilarini nomlarini keltirib o‘tamiz:

Kitob rayoni Sariosiyo qishlog‘idan Saidolim Nizomov. U zavodda tayyor mahsulotlar bo‘limi boshlig‘i. 3-yil axloq tuzatish kolonnasiga yuborishga hukm qilingan. 1988-yil 2 fevralda oqlangan. Bahoriston rayonidan Safar Ravshanov. U Bahoriston rayoni 27-sovxoza gidrotexnik vazifasida faoliyat yuritgan. JKning 42-moddasiga asosan 5- yil ozodlikdan mahrum qilingan. Mol-mulki musodara etilgan. 1988-yil 10 dekabrda oqlangan. Chiroqchi rayoni Langar qishlog‘idan Muxitdin Siddiqov. U ham “Paxta ishi” bilan ayblanib, 1988-yil 10 dekabrda oqlangan. Qarshi rayoni Shilvi qishlog‘ida tug‘ilgan Ibragim Toxirov. U JKning 40, 42-moddalariga asosan 12-yil ozodlikdan mahrum qilingan. 1988-yil 10 dekabrda oqlangan.

Kasbi rayoni Maymanoq qishlog‘ida tug‘ilgan Fozil Tuymurodov. JKning 42, 23-2-moddalarini qo‘llab, 4-yil ozodlikdan mahrum qilingan. 1988-yilda oqlangan. Chiroqchi rayoni Qorako‘z qishlog‘ida tug‘ilgan. Eshmurot Xoliqulov. U Muborak rayoni “Guliston” nomli sovxozda bosh hisobchi vazifasida ishlab kelgan. 7-yil ozodlikdan mahrum qilingan. Mol-mulki musodara etilgan. 1989-yilda oqlangan.

Qarshi rayoni Shilvi qishlog‘ida tug‘ilgan Xudoyor Shodmonov. Qarshi shahar paxta tozalash zavodi qoshidagi paxta punktida tarozubon. 5-yil ozodlikdan mahrum qilingan. Mol-mulki musodara etilgan. 1988-yil 10 dekabrda oqlangan. Abduqayum Qurbonov, Muborak rayoni “Guliston” nomli sovxozda bo‘lim boshlig‘i bo‘lib ishlagan. 3-yil shartli ravishda ozodlikdan mahrum qilingan. Mehnatga majburan jalb etilgan. Mol-mulki musodara qilingan. 1988-yilda oqlangan.

Albatta, adolatsizlik va xunrezlikning umri uzoq bo‘lmaydi. Gdlyan va Ivanov o‘zbek xalqiga qo‘ygan ayblovlari va bo‘hronlar o‘zini oqlamadi. Xalqning noroziligi kundan-kunga ortib, vaziyat keskin tusga kirdi. SSSR Bosh prokuraturasiga fuqarolardan, urush va mehnat fahriylaridan, mansabdor shaxslardan tinimsiz tushayotgan arizalar O‘zbekistonda qonun qo‘pol tarzda buzilayotganidan darak edi. Ushbu holatlar tumani paxta zavodida ishlaganlar.

Ayni shu paytga kelib “Paxta ishi” balosi bizning boshimiga ham balolar yog‘dirdi. Turmush o‘rtog‘im 1985-yilda 12-yilga qamalib qolganlaridan so‘ng kunimiz qorong‘ulikda o‘tdi. Men maktabda o‘qituvchi bo‘lib ishlaganman. 7 nafar farzandim bor, 2 tasi hatto maktabga ham bormagan edi. Eng yomoni, farzandlarimning qaddi bukildi. Ularning tarbiyasida turmush

o'rtog'imning ota-onalari menga juda katta yordam berishgan, dalda bo'tishgan. U paytlar hayot ancha og'ir edi. Paxta mavsumi boshlanishi bilanoq o'quvchilarni olib paxta dalasiga otlanar edik. Men juda yaxshi oilaga turmushga chiqqanman asli, qaynonam va qaynotam juda yaxshi insonlar edi. Doim meni qo'llab-quvvatlashgan.

Maktabdan chiqib uyga, uydan chiqib turmush o'rtog'imning begunohligini isbotlash uchun davlat organlariga yugurdim. Kechki payt ishdan chiqib poezdga o'tirsam, ertalab Toshkentga yetib boraman. Davlat rahbariga kirish ilinjida Toshkentga judayam ko'p qatnadim. 1989-yilda advokatimiz Eshonqulova Zamira Oliy Sovetga xo'jaynimni oqlash uchun ariza tashlash kerakligini aytdi. Qayinog'am bilan birga Toshkentga bordik. 28- 30 dekabr kunlari kutib, nihoyat "Shikoyat arizasi" yozdim. Arizani xatlovdan (registratsiya) o'tkazgunimga qadar 31 dekabr bo'lib qoldi. Ko'chada qor tinmay yog'ib yotibdi, juda sovuq, qaytish uchun biletlar yo'q, hozirgidek taksi qatnamaydi, gostinitsadan joy topolmadik. Qayerga borishni bilmay qaynog'am bir vagonchadan joy topdi, o'sha yerda tonggacha o'tirib chiqdik. O'sha kecha juda qattiq sovuq o'tib ketibdi, oyog'imni shamollatdim. Hozirgacha shuning og'rig'i bilan yashadim. Men hayotim davomida oilamda ham, ishxonamda ham faqat yaxshi insonlarga uchraganman.

Men ishlagan maktab direktori Ergashev Pirmamat degan inson bo'lardi, turmush o'rtog'imni yaxshi bilganlari bois, "hali yaxshi kunlar keladi, bolalarga yaxshi qarang, tushkunlikka tushib, o'zingizni oldirib qo'ymang" deb, doim menga dalda berib turardilar. Maktabda barcha topshiriqlarni o'z vaqtida bajarganim uchun meni namuna qilib ko'rsatgan vaqtlari ko'p bo'lgan. Turmush o'rtog'im 5-yil o'tib, 1991-yil 29 fevral kuni Prezident farmoni bilan oqlandi. Biroq, qora kunlarning og'rig'i, qamalgan degan dog'i hayotimizga, kelajagimizga, ruhiyatimizga o'z ta'sirini ko'rsataverdi.

Xulosa.

XX asrning 30–50-yillarida Surxon vohasida amalga oshirilgan qatag'onlik siyosati mintaqa ijtimoiy-siyosiy hayotida chuqur iz qoldirdi. Bu davrda ko'plab mahalliy ziyolilar, din vakillari va oddiy fuqaro vakillari asossiz ayblovlar bilan jazoga tortildi, ular jamiyatdan ajratildi, ruhiy va jismoniy azoblarga duchor qilindi. Ushbu qatag'onlar nafaqat shaxsiy fojialarga, balki madaniy merosning yo'qolishi va ijtimoiy rivojlanishning izdan chiqishiga sabab bo'ldi.

Arxiv hujjatlari va guvohlar xotiralari asosida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, qatag'on siyosati davlat tomonidan nazorat vositasi sifatida qo'llanilgan bo'lib, bu jarayon Surxon vohasida ham og'ir oqibatlarga olib kelgan. Bugun ushbu tarixiy voqealarni o'rganish, ularni yodga olish va tarixiy adolatni tiklash — milliy xotirani mustahkamlash yo'lida muhim qadamlardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Kumakin N. N. “Qahramon kurbonlar xotirasi” muzeyi jurnali.
2. Sovet O‘zbekiston, 1989 yil 27 dekabr soni.
3. Plyoxin V. Qatag‘on yillari haqida. -T., O‘zbekiston. -B. 4.
4. “Sovet O‘zbekistoni”, 1989 yil 3 noyabr soni
5. Jumayev N. Mahkumlar mahkamasi. – Samarqand: “Turon Nashr”, 2021. – B. 90.